



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi




So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025- yil 1- fevral holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 26 493 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 22 836 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 41 517 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,1 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiy ma'lumotlar

(1- fevral holatiga)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2025- yil yanvar oyida)


2025- yil yanvar oyida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 449 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2024-yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Buxoro shahar (12 taga), Olot (9 taga) va Shofirkon tumanlarida (7 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida – 78 taga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 29 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- fevral holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2025- yil 1- fevral holatiga 26 493 tani tashkil etdi, ulardan 22 994 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 28,9 foiz, sanoat – 11,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 10,7 foiz, qurilish – 7,7 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Buxoro shahrida – 27,2 foiz, tumanlardan G'ijduvon – 10,4 foiz, Romitan – 8,7 foiz, Jondor – 8,0 foiz va Buxoroda – 7,5 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil yanvar oyida)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2025- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 359 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 357 ta;
- yirik korxonalar 2 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- fevral holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- fevral holatiga 22 994 tani tashkil etdi, ulardan 22 836 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,3 foiz, sanoat – 13,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,1 foiz, qurilish – 8,8 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 8,2 foiz, tashish va saqlash – 9,9 foiz, axborot va aloqa – 1,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,0 foiz, boshqa turlari – 9,8 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil yanvar oyida)


Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2025- yil yanvar oyida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2024- yilning mos davriga nisbatan 111 tadan 135 taga (o'sish 24 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik – 32 tadan 61 taga (o'sish 29 taga) ko'paydi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- fevral holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Buxoro shahrida (27,1 foiz), G'ijduvon (10,5 foiz), Romitan (9,0 foiz) va Jondor (8,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2025- yil 1- fevral holatiga)

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Romitan (16,1 foiz), Jondor (11,4 foiz) va Kogon (9,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

2 481



325

Baliq ovlash va akvakultura

O'rmonchilik va yog'och tayorlash

18



(2025- yil 1- fevral holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 11,7 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 93,3 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,2 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 3,0 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	694
G'ijduvon t..	383
Kogon t.	289
Jondor t.	252
Romitan t.	247
Buxoro t.	236
Vobkent t.	222
Shofirkon t.	169
Peshku t.	148
Olot t.	143
Qorako'l t.	138
Kogon sh.	128
Qorovulbozor t.	55

Yillar kesimida soni (birlikda)



2 895

Ishlab chiqarish
sanoati



98

Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash



92

Suv bilan ta'minlash kanalizat-
siya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish



19

Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash





(2025- yil 1- fevral holatiga)

O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 49,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 26,4 foiz ulushni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 24,4 foiz ulushni tashkil etdi;

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida soni (birlikda)



Bino va inshootlar qurish

1 004

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

539

Fuqarolik obyektlarini qurish

498

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 7 633 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 60,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 28,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,9 foiz ulushni tashkil etdi

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	2 041
G'ijduvon t..	953
Buxoro t.	635
Romitan t.	617
Jondor t.	536
Qorako'l t.	492
Vobkent t.	433
Peshku t.	402
Shofirkon t.	399
Kogon sh.	371
Kogon t.	371
Olot t.	329
Qorovulbozor t.	140

Yillar kesimida soni (birlikda)



4 648

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

2 171

836

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- fevral holatiga 1 895 taga yetib, ularning 1 889 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 19,1 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 80,9 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	811
G'ijduvon t..	190
Vobkent t.	113
Romitan t.	110
Buxoro t.	103
Qorako'l t.	99
Jondor t.	98
Olot t.	77
Kogon sh.	75
Shofirkon t.	71
Kogon t.	57
Peshku t.	56
Qorovulbozor t.	35

Yillar kesimida soni (birlikda)



1 534

Oziq-ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha
xizmatlar

361

(2025- yil 1- fevral holatiga)

2025-yil 1-fevral holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 64,8 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 32,0 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,2 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	148
Shofirkon t.	20
Jondor t.	18
Kogon sh.	21
G'ijduvon t.	17
Romitan t.	17
Buxoro t.	14
Vobkent t.	14
Olot t.	14
Peshku t.	13
Qorako'l t.	9
Kogon t.	7
Qorovulbozor t.	6

Yillar kesimida soni (birlikda)



 Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	117	87	Aloqa 
 Noshirlik faoliyati	56	45	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyati 
 Kino-videofilmlar,televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	8	2	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish 

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 695 ta yoki 81,8 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

Ushbu sohadagi korxonalar sonining 97,2 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,8 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- fevral holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)


Buxoro sh.	493
Jondor t.	355
G'ijduvon t.	297
Romitan t.	295
Vobkent t.	231
Buxoro t.	148
Shofirkon t.	138
Kogon t.	100
Peshku t.	92
Kogon sh.	54
Olot t.	28
Qorako'l t.	32
Qorovulbozor t.	21

2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 8,6 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 86,5 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 12,5 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 0,9 foizni;
- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,1 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)

18 263

Mas’uliyati cheklangan jamiyat

79,5

2 205

Xususiy korxonalar

9,6

2 349

Oilaviy korxonalar

10,2

34

Aksiyadorlik jamiyati

0,1

143

Boshqalar

0,6

(2025- yil yanvar oyida)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	92	Kogon t.	17
Romitan t.	35	Peshku t.	15
G'ijduvon t.	31	Vobkent t.	12
Buxoro t.	30	Qorako'l t.	10
Olot t.	19	Kogon sh.	8
Jondor t.	18	Qorovulbozor t.	8
Shofirkon t.	18		

(2025- yil yanvar holatiga)

Amaldagi 22 994 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2025- yil 1- fevral holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 18 263 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,2 foiz, sanoat – 12,5 foiz, qurilish – 10,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,4 foiz.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	5 045
Romitan t.	1 893
G'ijduvon t.	1 857
Jondor t.	1 702
Buxoro t.	1 352
Vobkent t.	1 093
Shofirkon t.	1 080


Peshku t.	1 050
Kogon t.	1 049
Qorako'l t.	642
Olot t.	525
Kogon sh.	521
Qorovulbozor t.	454

(2025- yil yanvar oyida)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Qorako'l t.	20
Buxoro sh.	1

Kogon t.	1
G'ijduvon t.	1


(2025- yil 1- fevral holatiga)

2025- yil 1- fevral holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Buxoro shahrida – 601 ta, Qorako'l – 295 ta va Olotda – 246 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 994 ta, sanoat – 266 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 221 ta va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 101 ta.

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	601
Qorako'l t.	295
Olot t.	246
Buxoro t.	223
G'ijduvon t.	199
Kogon t.	142
Kogon sh.	126


Vobkent t.	88
Jondor t.	85
Shofirkon t.	73
Romitan t.	66
Peshku t.	52
Qorovulbozor t.	9

(2025- yil yanvar oyida)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro t.	5
Olot t.	4
Kogon sh.	3
Qorako'l t.	2
Buxoro sh.	2


Romitan t.	1
Shofirkon t.	1
Vobkent t.	1
G'ijduvon t.	1

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra 2 349 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,8 foiz, sanoat – 21,7 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 27,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,5 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Buxoro shahar – 22,5 foiz, G'ijduvon – 15,2 foiz va Vobkent tumanlarida – 10,3 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	528
G'ijduvon t.	357
Vobkent t.	241
Buxoro t.	171
Shofirkon t.	170
Olot t.	167
Qorako'l t.	165

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Kogon sh.	152
-----------	-----

Romitan t.	107
------------	-----

Kogon t.	95
----------	----

Peshku t.	88
-----------	----

Jondor t.	86
-----------	----

Qorovulbozor t.	22
-----------------	----

(2025- yil yanvar oyida)

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish


Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir. Mavsumiy va ko'p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo'limning asosiy yo'nalishlari bo'lib, fermer xo'jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiy sonining 100,0 foizini tashkil etadi.



Yillar kesimida soni
(birlikda)

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Jondor t.	4
Peshku t.	3
Qorovulbozor t.	1



(2025- yil 1- fevral holatiga)




O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Jondor (14,2 foiz), Buxoro (14,2 foiz) va Romitan (11,2 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida soni (birlikda)

Jondor t.	742
Buxoro t.	740
Romitan t.	586
Shofirkon t.	557
Kogon t.	465
Peshku t.	420
G'ijduvon t.	409
Vobkent t.	397
Qorako'l t.	289
Olot t.	269
Qorovulbozor t.	215
Buxoro sh.	127



Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

(2025- yil yanvar oyida)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

2025- yil yanvar oyida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o‘shish sur‘ati 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda 150,0 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Buxoro sh.	4	Qorako‘l t.	1
Olot t.	2	Peshku t.	1
Kogon t.	1		

(2025- yil 1- fevral holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 321 ta korxonalardan 119 tasi qo'shma korxonalar va 202 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Buxoro sh.	160
Buxoro t.	29
Kogon t.	26
Olot t.	17
Kogon sh.	15
Romitan t.	14
Qorako'l t.	13

Shofirkon t.	12
G'ijduvon t.	11
Vobkent t.	8
Qorovulbozor t.	6
Jondor t.	5
Peshku t.	5

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 3 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 63 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkmaniston egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 19,6 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi 16,5 foiz), Turkiya (ulushi 13,1 foiz), Rossiya federatsiyasi (ulushi 12,5 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 2,5 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2025- yil 1- fevral holatiga)




Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Buxoro shahri – 54,5 foiz, Kogon shaharga – 4,0 foizga, tumanlar orasida esa Buxoro – 6,4 foiz va Kogon – 7,4 foizga to'g'ri keladi.

(2025- yil 1- fevral holatiga)

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar




So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy ta'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2025- yil 1- fevral holatiga, birlikda)

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).


Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagi** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2025- yil 1- fevral** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

